

LEV TOLSTOYNING "IQRORNOMA" ASARIDAGI DINIY E'TIQODLAR TAHLILI

Jo'rayev Akrom

Termiz davlat universiteti, Falsafa kafedrası o'qituvchisi.

Murodova Farzona

Termiz davlat universiteti Filologiya va

tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabasi.

+998 94 015 12 06 E-mail: fmurodova906@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.19877784>

Annotasiya. Ushbu maqolada jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Lev Tolstoyning bugungi kitobxonlar orasida ham katta qiziqish bilan o'qiladigan "Iqornoma" asari va unda aks etgan diniy e'tiqod masalalari tahlil qilinadi. Asarda muallifning chuqur ruhiy inqirozi, hayot mazmunini izlash jarayoni hamda ilm-fan va falsafiy qarashlar bilan olib borgan ichki bahsi izchil yoritiladi. Tolstoyning diniy ishonchga kelishi tasodifiy holat emas, balki shubha, inkor va izlanish bosqichlari orqali shakllangan ongli ma'naviy qaror sifatida talqin etiladi. Maqolada yozuvchining diniy qarashlarga nisbatan tanqidiy yondashuvi, dinni tashqi ko'rinish va rasmiy talqinlardan ajratib, uni insonning ichki ishonchi va axloqiy pokligi bilan bog'lab tushuntirishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, diniy e'tiqod, hayot ma'nosi, ruhiy inqiroz, axloqiy poklik, ichki ishonch, falsafiy izlanish.

Аннотация. В данной статье анализируется произведение одного из крупнейших представителей мировой литературы Льва Толстого «Исповедь», которое и сегодня вызывает большой интерес у современных читателей, а также рассматриваются вопросы религиозной веры, отражённые в нём. В произведении последовательно раскрываются глубокий духовный кризис автора, процесс поиска смысла жизни, а также его внутренний диалог с научными и философскими взглядами. Приход Толстого к религиозной вере интерпретируется не как случайность, а как осознанное духовно-нравственное решение, сформировавшееся через этапы сомнения, отрицания и длительных поисков. В статье научно обосновывается критический подход писателя к религиозным взглядам, его стремление отделить религию от внешних форм и официальных интерпретаций, а также связать её с внутренней убеждёностью человека и нравственной чистотой.

Ключевые слова: литература, религиозная вера, смысл жизни, духовный кризис, нравственная чистота, внутренняя убеждёность, философские поиски.

Abstract. This article analyzes "A Confession" by Leo Tolstoy, one of the great representatives of world literature, which is still widely read with great interest among modern readers, and examines the issues of religious faith reflected in the work. The study consistently highlights the author's deep spiritual crisis, his process of searching for the meaning of life, and his internal dialogue with scientific and philosophical views. Tolstoy's arrival at religious belief is interpreted not as a random event, but as a conscious spiritual decision formed through stages of doubt, denial, and continuous intellectual and moral search.

The article also scientifically substantiates the writer's critical approach to religious views, emphasizing his effort to separate religion from external forms and official interpretations, and to explain it as a matter closely connected with a person's inner faith and moral purity.

Keywords: literature, religious faith, meaning of life, spiritual crisis, moral purity, inner belief, philosophical inquiry.

"Iqornoma"- 1879-1882- yillar oralig'ida Lev Tolstoyning hasbi hol janrida yozilgan asarlaridan biri. "Iqornoma"da Tolstoy o'z hayotini tashqi tomondan muvaffaqiyatli, ammo ichki tomondan bo'shliq bilan to'la deb tasvirlaydi. U boyluk, shuhrat va ijodiy yutuqlar insonni baxtli qilmasligini anglaydi. Ayniqsa, o'lim haqidagi fikrlar uning dunyoqarashini tubdan o'zgartiradi. U shuni tushunadiki, agar inson oxir-oqibat yo'q bo'lib ketsa, unda hayotdagi barcha yutuqlar vaqtinchalik bo'lib qoladi. Shu holat uni eng asosiy savolga olib keladi: inson yashashdan nima maqsad topadi? Asar davomida u ushbu savolga shunday javob beradi: "Shunda angladim — ha, biz chindan ham ana shunaqa telbalmiz. Harholda, men muqarrar tarzda ana shunaqa telbaman. Darhaqiqat, qush shunday hayot kechiradiki, u uchmog'i, ovqat jamg'armog'i, in qurmog'i kerak. Qush shunday qilayotganini ko'rsam, qushdan xursand bo'laman. Echki, quyon, bo'ri shunday hayot kechirishadiki, ular qorinlarini to'yg'azishi, urg'ishlari, oilalarini boqishlari kerak. Ularning shunday qilayotganlarini ko'rsam, men qat'iyon ishonamanki, ular baxtiyor va ularning hayoti oqilona. Xo'sh, inson nima qilmog'i kerak? U ham xuddi jonivorlar qilgan ishlarni qilib hayot kechirmog'i kerak, faqat farq shundaki, bu ishlarni inson yolg'iz o'zi qilsa, u muqarrar tarzda halok bo'ladi, u faqat o'zi uchun emas, hamma uchun qilmog'i zarur. U hamma uchun bu ishlarni qilayotganini ko'rsam, men qat'iyon ishonamanki, u baxtiyor va uning hayoti oqilona. Xo'sh, men o'zimning o'ttiz yillik ongli hayotimda nima qildim? Men nafaqat hamma uchun hayotni barpo etganim yo'q, men loaqal o'zim uchun ham tirikchilik arqonlarini yaratganim yo'q. Men bir tekinxo'r tarzida hayot kechirdim va o'zimdanda "nega yashayapman?" deb so'radim-da, "hech narsaga" deb javob oldim. Agar inson hayotining ma'nosi tirikchilik arqonlarini barpo etishda bo'lsa, men o'ttiz yil mobaynida bu arqonlarni barpo etish o'rniga o'zimda ham, boshqalarda ham ularni yo'q qilish bilan shug'ullangan bo'lsam, qanday qilib "hayotim bema'ni va yovuz narsa" degandan boshqa javob olishim mumkin?". Tolstoy bu savolga javob izlab, avval ilm-fanga murojaat qiladi. U ilm-fanning tabiat qonunlarini tushuntirishdagi kuchini tan olsa-da, uning inson hayotining ma'nosini ochib bera olmasligini ta'kidlaydi. Lev Tolstoyning "Iqornoma" asarida keltirilgan "Hayotning ma'nosizligi inson erishishi mumkin bo'lgan birdan-bir xulosadir" degan fikri yozuvchining ruhiy izlanishlari va ichki inqiroz davridagi falsafiy qarashlarini chuqur ifodalaydi. Bu jumla yuzaki qaralganda hayotdan umidsizlik yoki inkor kayfiyatini anglatgandek tuyulishi mumkin, ammo aslida Tolstoy bu orqali insonning dunyoga bo'lgan munosabatini qayta anglashga undaydi. Darhaqiqat, yozuvchi bu yerda hayotning foniyli, ya'ni uning o'tkinchi va vaqtinchalik tabiatiga urg'u beradi. Inson qanday yutuqlarga erishmasin, moddiy boyluk, shon-shuhrat yoki ijtimoiy mavqe bilan qanchalik yuqori cho'qqilarga chiqmasin, vaqt oldida ularning barchasi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Shu ma'noda, Tolstoy hayotning tashqi ko'rinishdagi yutuqlari inson ruhini to'liq qoniqtira olmasligini ta'kidlaydi. Asarning mazkur g'oyasi yozuvchining ichki krizisi — ma'naviy izlanishlar, maqsad va haqiqatni izlash jarayonlari bilan bevosita bog'liq. U hayotning mazmunini faqat tashqi muvaffaqiyatlar bilan izohlash yetarli emasligini anglab yetadi va insonni chuqurroq, ruhiy va axloqiy asoslar tomon yo'naltiradi.

Lev Tolstoy nafaqat diniy qadriyatlarga e'tibor bergan, balki insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy poklanishi va ichki o'sishi masalasini ham o'z ijodida markaziy o'ringa qo'ygan mutafakkirdir. U inson hayotida ilm va bilimning o'rnini juda yuqori baholaydi va bilimni qadrsizlantirish yoki unutish inson uchun katta yo'qotish ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ilm loqaydlik qo'lida qolsa, u o'z qiymatini yo'qotadi. Shu bois Tolstoy haqiqiy olimni "Bilganini hayotga tatbiq eta oladigan inson" deb biladi va ilmning faqat nazariy emas, amaliy ahamiyatga ega ekanini alohida urg'ulaydi.

Lev Tolstoy diniy-falsafiy qarashlarida esa barcha dinlarga hurmat bilan yondashish, ularning ichki axloqiy mazmunini anglash g'oyasi muhim o'rin tutadi. U "Diniy hayotimizni yaxshilash va insoniyatni anglash uchun barcha dinlarning ma'naviy mazmunini tushunishimiz kerak" (Tolstoy, 1882) mazmunidagi fikri orqali dinlarning asl mohiyati insonni ezgulikka yetaklash ekanini bildiradi. Bu yondashuv Tolstoyning diniy qarashlari tor doirada emas, balki umuminsoniy va bag'rikeng ekanini ko'rsatadi. Ozod Sharafiddinov esa "Iqornoma" asarini oddiy avtobiografiya emas, balki ijodiy-falsafiy izlanish sifatida baholaydi. Uning fikricha, bu asar yozuvchining dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va ichki o'zgarishlarini aks ettiradi.

Sharafiddinov "Iqornoma"ni insonning o'zini anglash va doimiy ma'naviy takomil sari intilish jarayoni sifatida talqin qiladi. "Iqornoma"da diniy e'tiqod markaziy o'rinda turadi.

Tolstoy uchun din tashqi marosimlar yoki rasmiy qoidalardan iborat emas. U e'tiqodni insonning ichki dunyosi bilan bog'liq, axloqiy hayotga yo'naltiruvchi kuch sifatida tushuntiradi.

Haqiqiy e'tiqod, uning fikricha, insonni yaxshilik qilishga, yomonlikdan tiyilishga va boshqalarga mehr bilan qarashga undaydi. Tolstoy shuni ham ta'kidlaydiki, e'tiqod insonni qo'rquvdan xalos qiladi.

O'limdan qo'rqish va hayotning ma'nosizligi hissi aynan e'tiqod orqali yengiladi. U uchun Xudoga ishonch — bu hayot tasodif emasligini, uning ortida yuqori ma'no borligini qabul qilishdir.

Asarda yana bir muhim jihat — muallifning o'z hayotiga tanqidiy qarashi. U ilgari erishgan shon-shuhrat, adabiy muvaffaqiyat va ijtimoiy mavqe uning ichki savollariga javob bermaganini ochiq tan oladi va quyidagicha fikrlarni keltirib o'tadi: "«Yasha, Xudoni izlab top, shunda hayoting Xudosiz bo'lmaydi». Shunda dilimdagi va atrofimdagi narsalarning hammasi har qachongidan kuchliroq nurlanib ketdi va bu nur meni ortiq tark etmadi." Ushbu jumlada muallif inson hayotining haqiqiy ma'nosi moddiy ne'matlarda emas, balki ma'naviy izlanishda ekanini ta'kidlaydi. "Xudoni izlab topish" iborasi tashqi marosim yoki rasm-rusumlardan ko'ra, avvalo qalbdagi uyg'onish, ichki e'tiqod va haqiqatni anglash jarayonini anglatadi. Muallif uchun Xudoni topish — bu hayotning ma'nosini topish demakdir. Aynan shu ruhiy kashfiyot natijasida uning qalbida yorug'lik paydo bo'ladi va u endi hayotni bo'shliq yoki ma'nosizlik sifatida emas, balki ilohiy maqsad sari yo'naltirilgan jarayon sifatida ko'ra boshlaydi. Bu holat uning e'tiqodga yuzlanish jarayonini yanada chuqurlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Iqornoma" asari insonning hayot ma'nosini izlash jarayonini yorituvchi chuqur falsafiy asardir. Unda diniy e'tiqod inson hayotining asosiy tayanchi, ruhiy barqarorlik manbai va axloqiy kamolotga eltuvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Tolstoyning qarashlari shuni ko'rsatadiki, inson faqat aql bilan emas, balki ichki e'tiqod orqali ham hayot mazmunini anglaydi. Ushbu asarda Tolstoy inson hayotining eng og'riqli savoli — "Nima uchun yashayman?" degan masalaga javob izlaydi va bu izlanish uni oddiy aqidaparastlikdan emas, balki ongli, ichki ishonchga tayangan e'tiqod sari yetaklaydi. Yozuvchi hayotning o'tkinchiligi, o'limning muqarrarligi va aqlning cheklanganligi haqidagi mushohadalar orqali insonni faqat ilm yoki boylik emas, balki ma'naviy tayanchgina qutqara olishini asoslaydi. "Iqornoma"dagi diniy qarashlar tashqi marosim va rasm-rusumlarga emas, balki qalb pokligi, vijdon uyg'oqligi va muhabbat tamoyiliga tayanadi. Tolstoy uchun haqiqiy din — bu insonning o'z ichki olamini poklash, nafsni tiyish, boshqalarga yaxshilik qilish va hayotni ilohiy ma'no bilan anglash jarayonidir. U rasmiy diniy tizimlarning shakliy ko'rinishlarini tanqid qilgan holda, asl e'tiqod inson qalbida yashashini ta'kidlaydi.

Shu jihatdan asar diniy-falsafiy tafakkurning shaxsiy tajriba orqali shakllangan noyob namunasi hisoblanadi. Yozuvchi o'z izlanishlari davomida oddiy xalqning sodda, ammo mustahkam e'tiqodidan ruhiy madad topadi.

Uning nazarida, aynan imon insonni yashashga undaydigan, ma'nosizlik va umidsizlikdan qutqaradigan qudratdir. E'tiqod hayotni cheksiz va abadiy ma'no bilan bog'laydi, inson qalbiga taskin va barqarorlik baxsh etadi. Shu bois Tolstoyning diniy qarashlari qo'rquvga emas, muhabbat va ongli tanlovga asoslangan ruhiy yetuklikni ifodalaydi. Sharqning buyuk va oliy konsepsiyalaridan biri komil inson bo'lishga intilishdir. Biz ikkilanmasdan ayta olamizki, Lev Tolstoy butun jahon ta'limotlarini o'rganadi, hind vedalari, Xitoy falsafasi, Budda ta'limoti, Sulaymon o'g'itlari, sharq rivoyatlari va albatta, Islom mohiyati bilan tanishib, nihoyat haqiqatni anglaydi. Adib haqida hatto Moskvada ham uning diniy qarashlari xususida bir qancharisola, maqolalar yozilgan. Olim Orif Arslonning "Lev Tolstoy Hazrati Muhammad sollollohu alayhi vasallamga maftun yozuvchi" nomli maqolasida Tolstoyning Islom diniga xayrixohligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo Tolstoy bu haqiqatni o'z davrida to'g'ridan to'g'ri aytolmasdi. Chunki u cherkov haqida norozilik bildirgach, Nikolay podsho uni cherkovdan haydatgan edi. Va u haqida, uning shaxsiy e'tiqodi haqida xalq orasida noo'rin fikrlar avj olgan edi. Aynan, "Iqornoma"da u xristian diniga shubha bilan qaraganini quyidagi fikrlari bilan isbotlaydi: "Ibodatdagi men uchun eng muhim gap-bir-birimizni sevib hamfikir bo'laylik... "degan gap edi. Tolstoy izladi, butun insoniyat uchun yagona bo'lgan haqiqatni izladi. Haq yo'lni izladi. Bu yo'lda juda ko'p mashaqqatlarni boshdan kechirdi. U chin dildan jamiyatda hukmron dinga e'tiqod qilishni istardi, bu haqida u o'z qalb iqrorlarida aytib o'tganini ham ko'ramiz.

Umuman olganda, "Iqornoma" insonning ma'naviy kamolot yo'lidagi iztiroblari va topilmalari haqida yozilgan chuqur iqror asaridir. Unda din hayotdan qochish vositasi emas, balki uni anglash va yuksaltirish qudrati sifatida talqin qilinadi. Tolstoyning xulosasi shundan iboratki, inson qalbidagi ishonch va ezgulik hissi hayotning asl tayanchidir. Asar o'quvchini o'z vijdoni bilan yuzma-yuz turishga, yashashning haqiqiy ma'nosini izlashga va e'tiqodni ongli ravishda his etishga chorlaydi. Shu ma'noda "Iqornoma" nafaqat yozuvchining shaxsiy e'tirofi, balki butun insoniyat uchun ma'naviy uyg'onish sabog'i sifatida qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. To'xtamatova va M. Yo'ldosheva " Lev Tolstoyning" Iqornoma " asaridagi axloqiy izlanishlar va diniy e'tiqodlar tahlili" maqolasi, 2,3- betlar.
2. Z. Jumaboyeva " Iqornoma" asarining tahlili va uning din va ilmga bo'lgan ahamiyati maqolasi.
3. N. Umurova " Iqornoma va islom falsafasi"
4. <https://share.google/q1RMzfmTbTQmviIUR>
5. <https://share.google/wR98Q3SyVaOTe9Rlx>
6. <https://share.google/m12MYjVulR50BfTFF>